

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**IJARA HUQUQI ASOSIDA YASHAYOTGAN TALABALAR TOMONIDAN TO'LADIGAN IJARA
TO'LOVLARINI QOPLAB BERISH TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son [Farmoni](#) bilan:

2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'Imagan uuda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lif muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi, bunda:

ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari, qolgan hududlarda — bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmasligi;

ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi birinchi navbatda ehtiyojmand oila farzandlariga, o'rnak ko'rsatgan va faol talabalar uchun qoplab berilishi;

oliy ta'lif muassasalari tomonidan ularning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijara huquqi asosida yashaydigan boshqa talabalarga ham oylik ijara to'lovining bir qismi qoplab berilishi mumkinligi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat oliy ta'lif muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

davlat oliy ta'lif muassasalarining faqat kunduzgi ta'lif shaklida, davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida tahsil oladigan va ijara huquqi asosida yashaydigan barcha talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini belgilangan mezonlar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish;

ariza beruvchi talaba tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish uchun o'zi ta'lif olayotgan fakul'tetga yoki oliy ta'lif muassasasining talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limiga yozma ariza bilan murojaat etish tartibi;

davlat oliy ta'lif muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha talabgorlarni tanlab olish komissiyasi tomonidan talabani ijtimoiy mezonlar bo'yicha o'rganish va talabaga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berishni ko'rib chiqish;

ijara huquqi asosida yashaydigan talabaga oylik ijara to'lovlarining bir qismini qoplab berishni moliyalashtirish va to'lab berish tartibi.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq davlat oliy ta'lif muassasalari tomonidan ijara huquqi asosida yashayotgan, biroq ijara to'lovlari ushbu qarorda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan talabalar toifasiga kirmaydagan boshqa talabalarning oylik ijara to'lovi bir qismini ushbu oliy ta'lif muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi oliy ta'lif muassasasi kengashi tomonidan mustaqil belgilanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2021-yilda mazkur qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda tizimida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan qo'shimcha mablag' ajratsin, 2022-yildan boshlab esa — tegishli mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti parametrlarida nazarda tutsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov, O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri T.A. Ishmetov hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X. Toshkulov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 24-sentabr,
605-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-
sentabrdagi 605-son qaroriga
ILOVA

Davlat oliy ta'lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan qoplاب berish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiyoq qoidalar

1. Ushbu Nizom yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga yoki ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'limgan uuda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalarini talabalarining oylik ijara to'lovi bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan qoplاب berish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniлади:

ariza beruvchi — yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga yoki ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'limgan uuda ijara huquqi asosida yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, shuningdek, respublikada doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'limgan davlat oliy ta'lim muassasasining talabasi;

ijtimoiy mezonlar — ijara to'lovining bir qismini birinchi navbatda olishga muhtoj talabalarni aniqlash va ularning ijtimoiy ustuvorligini belgilashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar;

davlat oliy ta'lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan qoplاب berish bo'yicha talabgorlarni tanlab olish komissiyasi (keyingi o'rinnlarda — komissiya) — ariza beruvchilarining ijtimoiy mezonlarga mos kelishini aniqlashga mas'ul bo'lgan mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq tarkibda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan tasdiqlanadigan doimiy va jamoatchilik asosida ishlaydigan tuzilma;

talabgor — ijara to'lovining bir qismini qoplاب berish to'g'risida komissiya tomonidan ijobjiy xulosa olgan talaba.

3. Ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarining oylik ijara to'lovi bir qismini qoplاب berish qonunchilik hujjatlari talabalariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobga qo'yilgan ko'chmas mulk ijara shartnomasiga muvofiq ijara huquqi asosida yashaydigan ariza beruvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ro'yxatga olingan doimiy yashash joyi doirasida (tuman, shahar miqyosida) ariza beruvchilarga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplاب berish amalga oshirilmaydi.

4. Bitta turar joyda ikki va undan ortiq talaba ijara huquqi asosida yashagan holatlarda ularning barchasi ijara shartnomasida qayd etilgan bo'lishlari shart.

Bunda:

turar joy ijarasi uchun to'lov summasi ijara shartnomasida qayd etilgan talabalar o'rtasida teng bo'lingan tarzda hisoblanadi;

oylik ijara to'lovining bir qismini qoplاب berish har bir talabaga to'g'ri keladigan ijara summasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

5. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar asosida uning ijtimoiy mezonlarga mos kelishini aniqlash komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat oliy ta'lif muassasalarining faqat kunduzgi ta'lif shaklida, davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida tahsil olishidan qat'i nazar, ijara huquqi asosida yashaydigan barcha talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismi belgilangan mezonlar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan qoplab beriladi.

2-bob. Ijara to'lovining bir qismini qoplab berish uchun ariza bilan murojaat etish

7. Ariza beruvchi mustaqil ravishda quyidagi holatlardan kamida birini tasdiqlovchi ma'lumot yoki hujjatlarni ilova qilgan holda ushbu Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq shakldagi anketa-arizani ikki nusxada to'ldirib, o'zi ta'lif olayotgan fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinosari yoki oliy ta'lif muassasasining talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limiga (keyingi o'rnlarda — mas'ullar) topshiradi:

Oldingi tahririga qarang.

kam ta'minlangan oilalarning farzandlari bo'lganligi (kam ta'minlangan oila deb topish tuman (shahar) mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limlari yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" avtomatlashtirilgan tizimi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi);

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagи 438-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y, 09/22/438/0726-son)

boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar (ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar) farzandlari bo'lganlar;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lganlar; vasiylik yoki homiylik belgilangan va oilaga tarbiyaga (patronat) olingan bolalar;

"Temir daftar"ga kiritilgan oila farzandi bo'lganlar;

onasi "Ayollar daftari"ga kiritilgan oila farzandi bo'lganlar;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning farzandi bo'lganlar;

oila a'zolari "Mehnat-migratsiya" dasturida ro'yxatdan o'tganligi hamda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotganligi;

ota-onasi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganligi (bandligi ta'minlanmagan, ishslash istagida bo'lgan, daromad manbaiga ega bo'lmagan, shu jumladan, mehnat qilish qobiliyatini qisman yo'qotgan);

oliy ta'lif muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandi bo'lganlar;

davlat oliy ta'lif muassasasida o'rnak ko'rsatganligi va faol bo'lganligi (xalqaro, respublika, hudud va ta'lif muassasasi miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari, ko'rik tanlovlari g'oliblari, fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarida faol qatnashganligi, jamoatchilik asosida targ'ibot guruhlaridagi volontyorlik faoliyati).

Ariza beruvchidan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumot va hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish:

o'quv yili davomida, ya'ni har yili 1-sentabrdan 1-iyulgacha etib yoki o'qitish dasturi bo'yicha o'quv yilining davomiyligiga qarab belgilanadi;

ariza beruvchi tomonidan har oyning 7-sanasiga qadar arizalar mas'ullarga taqdim etilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Ushbu muddatlar tugagandan keyin taqdim etilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

9. Ariza beruvchi taqdim etilgan hujjatlar va ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

3-bob. Ariza beruvchini ijtimoiy mezonlar bo'yicha o'rganish tartibi

10. Mas'ullar bir hafta davomida ariza beruvchining ma'lumotlari quyidagi ijtimoiy mezonlarga muvofiqligini har tomonlama o'rganadi:

ariza beruvchining davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobga qo'yilgan ko'chmas mulk ijara shartnomasi mavjudligi, uni tegishli ravishda rasmiylashtirilganligi, ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzilda yashashi hamda ijarada yashayotgan manzil ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli emasligi;

ariza beruvchining boquvchisini yo'qotgan oilalar farzandlari toifasiga mansubligi;

ariza beruvchining I va II guruh nogironligi mavjud, to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, vasiylik yoki homiylik belgilangan va oilaga tarbiyaga (patronat) olingan bolalar toifasiga mansubligi;

ariza beruvchining "Temir daftar"ga kiritilgan yoki onasi "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning farzandligiga mansubligi;

ariza beruvchining oila a'zolari "Mehnat-migratsiya" dasturida ro'yxatdan o'tganligi hamda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotganligi (oshirganligi);

ariza beruvchining ota-onasi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganligi, oliv ta'lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandi bo'lganlar toifasiga mansubligi;

ariza beruvchining oliv ta'lim muassasasida o'rnak ko'rsatganligi va faol bo'lganligi.

11. Mas'ullar hafta davomida o'rganilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, ko'rib chiqish va xulosa berish uchun navbatdagi haftaning birinchi kunida komissiyaga taqdim etadi.

4-bob. Oylik ijara to'loving bir qismini qoplab berishni komissiya tomonidan ko'rib chiqish tartibi

12. Mas'ullar taqdim etgan talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bir kun muddatda komissiya tomonidan o'rganib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi.

13. Komissiya ishining tashkiliy shakli yig'ilish hisoblanadi. Komissiya majlislari komissiya a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda o'tkaziladi. Bunda, talabgor ta'lim olayotgan fakultet dekanining masalaga mas'ul o'rnbosari, tyutor, xotin-qizlar kengashi raisi, yoshlar yetakchisi bir vaqtning o'zida komissiya yig'ilishida ishtiroy etishi shart.

14. Komissiya yig'ilishlarida ishtiroy etayotgan a'zolarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bergen komissiya qarorlari qabul qilingan hisoblanadi va ushbu yig'ilishlarda qabul qilingan qarorlar yig'ilish kotibi tomonidan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

15. Komissiyaning barcha yig'ilishlari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi va qaror shaklida qabul qilinadi.

16. Komissiya uning vakolatlariga tegishli masalalarni komissiya raisi boshchiligidagi o'tkaziladigan yig'ilishlarda ko'rib chiqadi.

17. Komissiya raisi:

komissiyaning umumiyligi faoliyatiga rahbarlik qiladi, uning ish rejasi bajarilishi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;

komissiyaning yig'ilishlarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

komissiya vakolatiga tegishli bo'lgan masalalarni uning yig'ilishida ko'rib chiqish uchun kiritadi;

komissiya qarorlarini tasdiqlaydi.

18. Komissiya kotibi:

komissiya raisining topshiriqlariga asosan komissiya a'zolarini komissiya yig'ilishining o'tkaziladigan joyi, vaqtini va sanasi to'g'risida xabardor qiladi;

komissiya ish rejalarini tayyorlaydi;

komissiya bayonnomalarini yuritadi va tasdiqlangan bayonnomalarni komissiya a'zolariga yuboradi;

komissiya dalolatnomalari va xulosalarini manzillarga yetkazadi; komissiya ish yurituvini amalga oshiradi.

19. Komissiya hujjatlari davlat oliy ta'limga muassasasining arxivida belgilangan muddatgacha saqlanadi.

20. Zarurat bo'lganda, taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida ariza beruvchi suhbat uchun Komissiya yig'ilishiga chaqirilishi mumkin.

21. Komissiya arizalarni navbat asosida ularning qayd etilishi ketma-ketligiga muvofiq ko'rib chiqadi.

Komissiya yig'ilishlari, ularning oshkoraliqi va xolisligini ta'minlash maqsadida uzlusiz videotasvirga (ovozi) tushiriladi hamda oliy ta'limga muassasasi arxivida belgilangan muddatgacha saqlanadi.

22. Komissiya taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida hamda ijtimoiy mezonlarga ko'ra ariza beruvchiga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Talabgorlarni tanlash komissiya tomonidan qonuniylik, shaffoflik,adolat va haqqoniylilik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yoki berishni rad etish to'g'risida komissiya maxsus reyestrni yuritadi.

23. Ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha komissiya yig'ilishining bayonnomasi asosida bir kun muddatda davlat oliy ta'limga muassasasi rektori (filial direktori)ning tegishli buyrug'i rasmiylashtirilib, arizalari qanoatlantirilgan Talabgorlar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar va ularning ro'yxati to'lovlarni amalga oshirish uchun buxgalteriyaga taqdim etiladi.

Komissiyaning ijara to'lovining bir qismini to'lab berish yoki ijara to'lovining bir qismini to'lab berishni rad etish to'g'risidagi qarori asoslantirilgan ravishda oliy ta'limga muassasasining tegishli e'lonlar taxtalari, rasmiy saytlarida aks ettirilishi komissiya kotibi tomonidan ta'minlanadi.

24. Mazkur Nizomning **7-bandiga** muvofiq belgilangan mezonlar asosida baholangan ariza beruvchi undagi birorta mezonga to'g'ri kelgan taqdirda, u talabgor sifatida tan olinib, oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berishga haqli deb topiladi. Talabgorlar mezonlarning ketma-ketligiga qarab birinchi navbatdagi talabgor sifatida tan olinadi va ustunlikka ega bo'ladi.

25. Quyidagi holatlarda ariza beruvchiga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish rad etilishi mumkin:

ushbu Nizomning **7-bandida** ko'rsatilgan holatlardan kamida birini tasdiqlovchi ma'lumot yoki hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda;

taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar belgilangan mezonlarga mos kelmaganda;

ariza beruvchining ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzilda yashamasligi, ijara shartnomasida yashayotgan manzil ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli ekanligi, ijara shartnomasida tegishli tartibda rasmiylashtirilmaganligi;

taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

ariza va tegishli hujjatlar qabul qilishning oxirgi sanasi tugagandan keyin taqdim etilganda.

26. Oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'rinish imkoniyati bo'lgan taqdirda ariza beruvchi ushbu Nizomda belgilangan umumiylar takroran murojaat qilishga haqli.

5-bob. Oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berishni moliyalashtirish va to'lab berish tartibi

27. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda davlat oliy ta'limga muassasasi ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning jami sonini, shuningdek, uning 60 foizini alohida ko'rsatgan holda asoslantirilgan hisob-kitoblarni yuqori turuvchi vazirlik va idoralarga taqdim etishlari lozim.

28. Vazirlik va idoralar o'z navbatida davlat oliy ta'limga muassasalari tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarni jamlab, belgilangan tartibda Davlat budgetidan tegishli mablag'larni ajratish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadilar.

29. Davlat budgetidan mazkur maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar oliv ta'lif muassasasi xarajatlar smetasining "47.21.500 — Uy-joy-kommunal xizmatlar bo'yicha har oylik kompensatsiya to'lovlari" moddasida rejalashtiriladi.

30. Arizasi ijobjiy hal etilgan talabalar uchun ijara to'lovining bir qismi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'larini hisobidan ular ariza bergan sanadan boshlab qoplab beriladi.

31. Davlat oliv ta'lif muassasasi rektori (filial direktori)ning tegishli buyrug'iga muvofiq muassasa buxgalteriyasi tomonidan ijara haqining bir qismini qoplash uchun beriladigan mablag'lar talabgorning plastik kartasiga pul o'tkazish yo'lli bilan har oyning 15-sanasiga qadar to'lab beriladi.

32. Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar ijara to'lovining bir qismini qoplab berish uchun davlat oliv ta'lif muassasalariga budgetdan ajratilgan mablag'larning tegishli moliya yili yakuniga qadar o'zlashtirilmay qolgan qismi belgilangan tartibda Davlat budgetiga qaytariladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Talaba o'quv yili davomida akademik ta'ilga chiqqan, kursda qoldirilgan yoki talabalar safidan chetlashtirilgan hollarda, unga ijara haqining bir qismini qoplash uchun beriladigan mablag'larni to'lash to'xtatiladi.

34. Talabgor ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni, shuningdek taqdim etilgan ijara shartnomasi bekor qilinganda yoki yashash manzili o'zgarganda uch ish kuni ichida mas'ullarga hamda oliv ta'lif muassasasi buxgalteriyasiga xabar berishi shart.

35. Mazkur to'lovlearning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini doimiy nazorat qilish davlat oliv ta'lif muassasasi rektori (filial direktori), yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorekitori (direktor o'rinnbosari), bosh buxgalteri va bosh auditori zimmasiga yuklanadi.

36. Oylik ijara to'lovi bir qismini qoplab berish bo'yicha ajratilgan mablag'lar ortiqcha to'langanda, davlat oliv ta'lif muassasasining mas'ullari hamda buxgalteriyasi tomonidan mazkur mablag'larni qaytarish choralar ko'rildi.

Oldingi tahririga qarang.

37. O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish bo'yicha mablag'larni talabgorlarga to'lanishi yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirlik va idoralarning Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

(37-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdaggi 431-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son)

38. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

39. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Davlat oliv ta'lif muassasalarining
ijara huquqi asosida yashayotgan
talabalariga oylik ijara to'lovining bir
qismini O'zbekiston Respublikasi
Davlat budgeti hisobidan qoplab
berish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
1-ILOVA

Davlat oliv ta'lif muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan qoplab berish bo'yicha talabgorlarni tanlab olish komissiyasining

NAMUNAVIY TARKIBI

1. Lavozimiga ko'ra — Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorekitor (direktor o'rinnbosari), Komissiya raisi
2. Lavozimiga ko'ra — Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i

3. Lavozimiga kura — Oliy ta'lismuassasasining Xotin-qizlar kengashi raisi
4. Lavozimiga kura — Tegishliligi bo'yicha fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'ribbosari
5. Lavozimiga ko'ra — Oliy ta'lismuassasasining Yoshlar yetakchisi
6. Lavozimiga ko'ra — Tyutor
7. Lavozimiga ko'ra — Bosh auditor
8. Lavozimiga ko'ra — Buxgalteriya mas'ul xodimi
9. Lavozimiga ko'ra — Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim mas'ul xodimi, Komissiya kotibi

Davlat oliy ta'lismuassasalarining
ijara huquqi asosida yashayotgan
talabalariga oylik ijara to'lovining bir
qismini O'zbekiston Respublikasi
Davlat budgeti hisobidan qoplab
berish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
2-ILOVA

**Oliy ta'lif
muassasasi nomi
rektori (direktori)
F.I.O. ga**

ANKETA-ARIZA

1. _____

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

2. Manzil:

3. Tug'ilgan sənasi ____ / ____ / ____ y.

4. Jinsi: ____ (ayol) ____ (erkak)

5. Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR)

6. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami

7. O'qish joyi _____ / bosqich

ta'lif yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi)

8. Qaysi hududdagi uy-joyni ijara olmoqchisiz? Toshkent
shahrida _____ / boshqa hududlarda

9. Uy-joy ijara summasi _____ so'm.

10. Siz bilan aloqaga chiqish uchun ma'lumotlaringiz?
uy tel: _____, uyali tel: _____, el.pochta

Men davlat tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab
berilishidan manfaatdorligimni bildiraman.

Pasportim va ijtimoiy mezonlarga muvofiqligimni tasdiqlovchi
hujjatlar nusxalarini ilova qilmoqdaman. Ushbu ariza va unga
ilova qilinayotgan hujjatlarda ko'satilgan barcha ma'lumotlarning
haqiqiyigini tasdiqlayman.

_____ _____ “ ” _____
imzo F.I.O. kun oy yil

Ariza № _____

Qabul qilish sanasi “ ”

202 _____ y.

Qabul qilgan shaxs F.I.O

Qabul qilgan shaxs imzosi

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2021-y., 09/21/605/0910-son; 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son;
10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)